

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA ADOLATLI SHOH G‘OYASINING ULUG‘LANISHI

Zakirova Maqsuda Atayevna

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU akademik
litseyi ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

Annatatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodining yuksak namunalaridan biri bo‘lgan “Saddi Iskandariy” dostonida adolatli shoh g‘oyaasining badiiy-falsafiy talqini har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda Iskandar obrazining tarixiy-afsonaviy manbalardagi talqini bilan Navoiy yaratgan ideal hukmdor qiyosiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Asarda shohlik va adolat munosabati, hokimiyatning ma’naviy mas’uliyati, rahmdillik va donishmandlik kabi fazilatlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni ochib beriladi.

Maqolada “Saddi Iskandariy” dostoni Sharq siyosiy-falsafiy tafakkurining badiiy ifodasi sifatida talqin qilinib, unda ilgari surilgan “adolatli shoh” g‘oyasi faylasuf mutafakkirlarning davlat va hokimiyat haqidagi qarashlari bilan mushtaraklikda yoritiladi. Iskandar timsolida hukmdorning kuch bilan emas, balki adolat va ma’rifat orqali buyuklikka erishishi g‘oyasi asoslanadi.

Shuningdek, maqolada dostonning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati ochib berilib, uni zamonaviy ta’lim jarayonida, xususan, adabiyot va ma’naviyat darslarida qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari adabiyotshunoslik, siyosiy tafakkur tarixi va pedagogika yo‘nalishlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Saddi Iskandariy, Alisher Navoiy, adolatli shoh, Iskandar obrazi, siyosiy falsafa, ideal hukmdor, ezigulik, yovuzlik, insonparvarlik .

KIRISH

Sharq mumtoz adabiyotida hukmdor obrazi faqat tarixiy shaxsni tasvirlash bilangina cheklanmay, balki muayyan siyosiy-falsafiy idealning badiiy timsoli sifatida shakllangan. Bu jarayonda Alisher Navoiy yaratgan “Saddi Iskandariy” dostoni alohida o‘rin tutadi. Asarda Iskandar obrazi orqali adolatli shoh g‘oyasi yuksak badiiy va falsafiy darajada ifodalanadi.

Iskandar tarixda buyuk sarkarda sifatida tanilgan bo‘lsa-da, Navoiy talqinida u eng avvalo adolat, donishmandlik va insonparvarlik timsoliga aylanadi. Doston hukmdor va xalq o‘rtasidagi mas’uliyat munosabatini yoritib, hokimiyatning asosiy vazifasi jamiyatda adolatni qaror toptirish ekanini ta’kidlaydi. Shu jihatdan, “Saddi Iskandariy” nafaqat adabiy asar, balki siyosiy-axloqiy manifest sifatida ham qadrlanadi.

ASOSIY QISM

1. Iskandar obrazi va adolatli shoh konsepsiyasi

“Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar obrazi Sharq adabiyotidagi ideal hukmdor modelining yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. U kuch-qudrat bilan bir qatorda ilm-fan, donishmandlik va axloqiy poklikni ham o‘zida mujassamlashtirgan shaxs sifatida talqin qilinadi. Navoiy uchun haqiqiy shoh — xalq dardini tushunadigan, adolatni ustuvor qadriyatga aylantirgan shaxsdir.

Dostonda Iskandarning yovuz kuchlarga qarshi devor — “sadd” qurdirishi ramziy ma’noga ega bo‘lib, bu nafaqat jismoniy himoya, balki jamiyatni adolatsizlik, zulm va jaholatdan himoya qilish timsolidir. Shu orqali muallif adolatli shohning asosiy vazifasi tartib va tinchlikni ta’minlash ekanini badiiy ifodalaydi.

2. Adolat va hokimiyat munosabati

Navoiy talqinida adolat — hokimiyatning ma’naviy poydevoridir. Agar shoh adolatdan cheksa, uning saltanati mustahkam bo‘la olmaydi. “Saddi Iskandariy” dostonida bu g‘oya turli epizodlar orqali isbotlanadi: Iskandarning oddiy xalq bilan muloqoti, faqirlar holidan xabar olishi, zolim amaldorlarga nisbatan qat’iy pozitsiyasi buni tasdiqlaydi.

Bu jihat Navoiy siyosiy-falsafiy qarashlarining Forobiy ta’limoti bilan mushtarakligini ko‘rsatadi. Forobiy “Fozil shahar” konsepsiyasida hukmdor eng avvalo axloqiy yetuk shaxs bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan edi. “Saddi Iskandariy”da esa bu g‘oya badiiy timsolga aylantirilgan.

3. “Saddi Iskandariy”da adolatli shoh g‘oyasining didaktik ahamiyati

Doston nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki kuchli tarbiyaviy salohiyatga ham ega. Iskandar obrazi yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Unda quyidagi fazilatlar ulug‘lanadi:

adolatparvarlik;

xalqparvarlik;

ilmga e’tibor;

mas’uliyat va halollik;

rahm-shafqat.

Mazkur fazilatlar zamonaviy rahbarlik konsepsiyasi bilan hamohang bo‘lib, dostonni bugungi kun uchun ham dolzarb asarga aylantiradi.

4. Dostonni o‘qitish va targ‘ib etishning metodik yo‘llari

“Saddi Iskandariy”ni ta’lim jarayonida quyidagi yo‘nalishlarda samarali qo‘llash mumkin:

1. Adabiyot darslarida — Iskandar obrazini tahlil qilish orqali “ideal shoh” tushunchasini shakllantirish.


2. Ma’naviyat mashg‘ulotlarida — adolat, halollik va vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish.

3. Interaktiv metodlar orqali — bahs-munozara, rol o‘ynash mashqlari asosida hukmdor va xalq munosabatini talqin qilish.

Bu yondashuvlar dostonning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

“Doro va Iskandar” , “Iskandar va darvesh-shahzoda”, “Iskandar va Qirvon o‘lkasi” sahnasi orqali asarning didaktik tomonini yoritish mumkin

“Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti” orqali bahs uyushtirib, kichik guruhlarda mavzuni yoritish mumkin.




“Baliq skeleti” metodi orqali Iskandar qurdirgan devor haqidagi ma’lumotlar joylanib, mavzu mustahkamlanadi, savollarga yechim topiladi. Bu orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘z mulohalarini erkin bayon qilishga erishiladi.

Badiiy asarlarning tiliga xos xususiyatlarni ko‘rsatish uchun lug‘atlardan foydalanish kerak bo‘ladi. Agar asar tilining lug‘at namunasi o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligida tuzilsa, darsning samaradorligi ortadi.

Asarda tasvir vositalarining o‘rni va ahamiyati haqidagi ko‘rgazmali qurolning eskizini ham tayyorlash mumkin. U asarni tahlil qilishda, o‘rganilishi va izohlanishi lozim bo‘lgan adabiy-nazariy tushunchalarni aniqlashda yordam beradi.

“Venn diagrammasi” metodi orqali “Saddi Iskandariy” dostoni boshqa xamsanavislar dostonlari bilan qiyoslanadi.



AMALIY AHAMIYATI

Mazkur tadqiqot natijalari: oliy ta'lim muassasalarida , akademik litsylarda mumtoz adabiyot fanlari uchun;

umumta'lim maktablarida ma'naviyat darslari uchun;

rahbarlik va liderlik madaniyatini shakllantirishga oid treninglar uchun nazariy va metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

“Saddi Iskandariy” dostonida adolatli shoh g'oyasi Alisher Navoiy siyosiy-falsafiy qarashlarining badiiy ifodasidir. Iskandar obrazi orqali muallif hukmdorning eng buyuk quroli adolat ekanini, davlatning barqarorligi esa axloqiy tamoyillarga tayanishini asoslaydi. Doston bugungi kunda ham jamiyat boshqaruvida halollik va mas'uliyat masalalarini anglash uchun muhim manba bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: Fan, 2011.
2. Bertels E. E. Navoiy ijodi va Sharq adabiyoti. – Toshkent, 1965.
3. Komilov N. Tasavvuf va badiiy tafakkur. – Toshkent, 2005.
4. Qayumov A. Navoiy va adabiy meros. – Toshkent, 1991.
5. Forobiy. Fozil shahar ahlining qarashlari. – Toshkent, 2004.
6. Yusupova D. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti. – Toshkent, 2016